Fanlararo aloqadorlik asosida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari...	410
Babayeva M. A.	
Rahbarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni boshqarish chora-tadbirlari.....	413
Bagmatov Davlatjon	
Rivojlanayotgan davlatlarda ota-onada farzand munosabatlari.....	418
Bobojonova Nazira Merganboy qizi	
Huquqiy fanlarni innovatsion o'qitish usullarining afzallikkleri	422
Dauletbaeva Jadiraxan Aliy qizi	
Ona tili o'qituvchilarining nutqi bilan bog'liq muammolar va unga doir yechimlar.....	426
G. Do'stmurodov	
Barqaror rivojlanish kontekstida maktabgacha ta'lif: bolalarda ekologik ongni shakllantirish.....	430
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks yondashuv	433
Ibroximova O'g'iloy Inomjon qizi	
Transformatsiya-lashayotgan jamiyatda yoshlarning shaxsiy resurslari va psixologik barqarorligi	437
Irisbayeva Qunduzxon	
Talabalarda kasbiy kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligi va uning natijalari	440
Ismanova Ma'mura Abdumo'minovna	
Maktabgacha yoshdag'i serebral falajli bolalarda nutq va motorikani rivojlantirish	444
Isodullayeva Iqboloy Sodiqjonovna	
Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishda kredit-modul tizimining pedagogik jihatlari ..	447
J. Otepbergenov	
Yashil suvo'tlar (Chlorophyta) bo'limini o'qitish metodikasi	451
M. N. Xayitova	
Bo'lg'usi pedagoglarda empatik kompetensiyalarni rivojlantirish: zamonaviy yondashuvlar va amaliy strategiyalar	457
Mambetkarimova Indira Polatbaevna	
An Analysis of the Present-Day use of English Folklore in Education.....	460
Maxsudaliyeva Ranokhon Bakhodir qizi	
Yoshlarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishning psixologik xususiyatlari	463
Mirzaxmatova Sayyora Saydaxmatovna	
Kasbiy kompetensiya tushunchasi va uning mohiyati	466
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishni tashkil qilish shakllari	471
Norquvatova Diyora Davron qizi	
Zamonaviy ta'limda inkyuziv yondashuvlar: o'qituvchilarning kasbiy tayanchlarini takomillashtirish.....	475
Olimova Nodirabegim Ibrohimjon qizi	
Jadidlar ta'lif orqali jamiyatni o'zgartirishga intilganlari, ularning maqsadlari va erishilgan natijalar.....	479
Omonov Asliddin Sunnatovich	
O'zbek tilida rang bildiruvchi leksik birliklarning tarixiy-etimologik tahlili.....	481
Rahmon Ernazarov	
Boshlang'ich ta'lif – inson kamolotining ilk poydevori!	485
Ravshanova Ra'no Raup qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish	489
Saidova Dilnoza Baxtiyor qizi	
Mental arifmetika orqali bolalar intellektini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	493
Saydallyeva Umidabonu Sharifjon qizi	
Innovatsion ta'lif sharoitida boshlang'ich sinf ona tili darslarining samaradorligini oshirish muammosi	496
Sharipova Sevara Erkin qizi	
CEFR doirasida arab tilida yozma nutq kompetensiyasini baholash mezonlari va amaliy usullar	499
Sindarova Malika Aziz qizi	



VARK ta'lim modelining pedagogik oqibatlari	503
Temirova Mushtariybonu	
Kasbiy rivojlanish soatlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish	507
Temirova Rushana Ravshan qizi, Nishonova Durdon Olimjon qizi	
Teaching on Empty: Burnout Challenges in Elt Classrooms	511
Usmanova Nilufar Xasan qizi	
Ona tili ta'limini tashkil etish jarayonining ilmiy-nazariy tendensiyalari	514
Uzoqova Maftuna Abdirazzoqovna	
Kriticheskoe myshlenie v kontekste emotsional'nogo intellekta	518
Najmudinova Madina Xalimovna	
Reformasiya obrazovatel'noy sistemy dlya povышeniya kachestva i dostupnosti obrazovaniya, kak odna iz celей ustoychivogo razvitiya	521
Askarova F. A.	
Yengil atletika sport turida uzunlikka sakrovchilarni mashg'ulot jarayonida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uslubiyati	528
Ro'zmetov Rasul Tangirberganovich	
Nutq – ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida: maktabgacha yoshdag'i bolalarda shakllanish bosqichlari va yondashuvlar	532
Sharipova Guzel Sodiqovna, Xabibullayeva Maf'tunaxon Vaxobjon qizi	
Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida multimedia vositalari orqali nutq madaniyatini shakllantirish modeli	535
Abduvaliyeva Farida Salimon qizi	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalash tendensiyalari	539
Abirova Umida Nazarovna	
Tanqidiy fikrplash: tushunchasini tahliliy idrok etish	543
Akabirova Mexriniso Baxtiyorovna	
Nutq nuqsoniga ega bolalar diqqat xususiyatlari	547
Akbarova Ziyoda Qurbonjon qizi	
Milliy tarbiya asoslari fanini o'qitishning amaliyotdagi holati	550
Alisher Tursunov	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularni bartaraf etish yo'llari	554
Beketov Nurselit Alijan o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik munosabatini oshirishda ekskursiya mashg'ulotlarini o'tkazishda raqamli texnologiyalarning o'rni	558
Bovanova Umida Abduvahabovna, Meliqulova Oybahor Farhod qizi	
Neyropedagogika va zamonaivy ilmiy yondashuvlar	564
Duschanova Nilufar Sabirbayevna	
O'yin texnologiyasi asosida bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish	567
Eshmuratova Gauxar Maxsudovna	
Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida konstruksiyalashga oid ko'nikmalarni shakllantirish	570
Eshonqulova Ma'suda Xabibovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantirish markazlaridagi ta'limi faoliyatlarni kuzatish va tahlil qilish metodikasi	573
Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna	
Duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirishda logopedik texnologiyalarning o'rni	576
Mahkamova Umida Abdusattorovna	
Kurash mashg'ulotlarining o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashdagi roli: an'anaviy sportning pedagogik imkoniyatlari	579
Muratov Muzaffar Shermamatovich	
Autizm sindromli bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda korreksion ishlari	582
Nabihev Ravshanjon Shavkatjon o'g'li	
Sharq ma'rifatparvarlari va ularning gender tengligi haqidagi qarashlari	586
Norimonova Gulmira Ulug'bek qizi	
Sport vositasi orqali yoshlar o'rtasida ekstremizmning oldini olish yo'llari va mexanizmlari	589
Nosirova Dilnoza Sobirovna	



Sportchilarning individual funksional xususiyatlariiga asoslangan mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish yo'llari	593
Olimov Shahobiddin Maribboy o'g'li, Sulaymonova Maktuba Xusan qizi	
Kasbiy sifatlarini takomillashtishda raqamli texnologiyalar foydalanish.....	597
Otanazarova Mohira Xamidbekovna	
Biologiya fanining ta'limgagi o'rni va o'qitishdagi muammolar.....	601
Pulatova Elmora Kadirovna	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi antroponomlarning funksional, leksik, semantik, morfologik tadqiqi.....	606
Qarshiyeva Gulbahor Shamil qizi	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish metodik muammo sifatida .	609
Raxmonova Iroda Samjonovna	
Professional Standards for Pre-Service Teachers	613
Sardor Rakhmanov	
Ta'limi raqamlashtirish sharoita bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	619
Sayidova Muxtaram Xamidullayevna	
Ingliz tilini o'rgatishda multimodal yondashuv asosida ta'limi videolardan foydalanish strategiyasi	623
Solijonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matn ustida ishslash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish.....	628
Sotiboldiyeva Shoxista Jaloliddin qizi, Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi	
O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslarida talabaning tarbiyaviy jihatlarini takomillashtirish ..	632
Temirov Ma'ruf Shuhrat o'g'li	
Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari fani orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	638
Umarova Fotima Abduraximovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda xalq pedagogikasi vositasida milliy xarakter xususiyatlarni shakllantirish omillari.....	641
Usmonova Muattar Bahadirjonovna, Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalarning bugungi kunda ta'lim sohasidagi qo'llanilishi	647
Xamroyeva Madina Dadajonovna, Umarov Husan Lazizi o'g'li	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish.....	650
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo	
Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili.....	655
Kodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi	
O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati	660
Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi	
Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar	663
Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna	
Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons	666
Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov	
Теоретические основы и практическое применение компетентностного подхода в обучении физике	670
Абдулхаким Хакимов	
Роль инклюзивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста	673
Плиева Руслана Владимировна	
"Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi	676
Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy	
Zначение наблюдения и педагогической диагностики в инклюзивном образовании.....	682
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari	685
Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna	
Диалог культур в рассказе "Келинка" галины ширяевой: гендерная и этнокультурная перспектива..	689
Чернова Татьяна Алексеевна	

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI



Sayidova Muxtaram Xamidullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Texnologik ta'lism” kafedrasи katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada raqamli texnologiyalarning ahamiyati va ularni ta'lim sohasida qo'llash masalalari bayon qilingan. Raqamli texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonini ta'minlash uchun mo'ljallangan zarur komponent hisoblanishi nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, ta'lim jarayoni, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter.

Abstract: The article describes the importance of digital technologies and their application in the field of education. The necessity of digital technologies as a component designed to support the modern educational process is theoretically substantiated.

Key words: Digitization, educational process, digital technologies, information and communication technologies, computer.

Аннотация: В статье описывается важность цифровых технологий и их применение в сфере образования. Необходимость цифровых технологий как компонента, призванного обеспечить современный образовательный процесс, теоретически обоснована.

Ключевые слова: Цифровизация, образовательный процесс, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, компьютер.

KIRISH

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish hozirgi kunda ta'limga jadal rivojlanishi va samaradorligini oshirish uchun asosiy vositaga aylandi. O'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim mazmunini yaxshilash, talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish va ularning individual imkoniyatlariga moslashtirish imkonini yaratadi [14]. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari ta'lim jarayonini konstruktivistik yondashuv asosida qayta tashkil etish, ya'ni o'quvchilarni faol ishtiroychiga aylantirishdan iborat.

Mehnat bozori bitiruvchilarni tayyorlashda sifat jihatidan yangi yondashuv va mazmunni talab etmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari nafaqat ta'lim mazmuniga, balki uni tashkil etish usullariga ham katta ta'sir ko'sratmoqda [1]. Bu jarayonlar universitet va professor-o'qituvchilar faoliyatiga turlicha ta'sir etib, ularni yangi talablarga moslashishga undamoqda. Zamonaviy kompetensiyalar ko'pincha ta'lim muassasalari devoridan tashqarida shakllanmoqda, chunki ta'lim dasturlari ko'p hollarda texnologiya rivojlanishining tezkor dinamikasiga yetarli darajada mos kelmaydi. O'qituvchi an'anaviy tarzda bilim va ko'nikmalar uzatuvchisidan bilim asoslarini bosh-qarishda yo'lboshchi sifatida harakat qiladigan navigatorga aylannoqda. Bu masalalar oliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, talab etilayotgan chora-tadbirlar ko'pincha universitetlar sonini oshirish yoki ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmoqda. Shu bilan birga, ilmiy faoliyatning mazmunini baholash ko'pincha fanning rasmiy va formal tafsilotlari bilan almashtirilayotgani kuza tilmoqda. Pedagogik ish faoliyati esa yangi xarakterga ega bo'lib, zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlarni

talab etmoqda. Raqamli asrda ta'lism sohasida axborot almashishning yangi usullarini joriy etish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish, ularni raqamlashtirilgan ta'lism muhitida rivojlanish, raqamli texnologiyalarning ta'lism sifatini oshirishdagi roli kabi muammolar bo'yicha U.N. Nishonaliyev, A.R. Xodjabayev, N.Sh. Shodihev, N.A. Muslimov, X.I. Ibragimov, E.I. Ro'ziyev, O.Q. Tolipov, N. Sayidahmedov, D. Ergashev, Sh.S. Sharipov, O. Abduquddusov, E.T. Choriyev, O. To'raqulov, J. Hamidov, A. Jo'rayev, U. Jumanazarov, O. Qo'ysinovlar va boshqa ko'plab vatanimiz olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, texnologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyati, texnologik salohiyati, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalaridan foydalanish ahamiyati va rolini tahlil qilishga asoslanadi.

Texnologiya darslarining sifatini oshirishda raqamli texnologiyalar tarkibini tahlil qilish usullari, ta'lism sifatini oshirish bo'yicha ishchi dasturlar va qo'llanmalar, zamonaviy veb-vositalardan foydalanish bo'yicha ilmiy umumlashtirish, ushbu tadqiqot muammosi bo'yicha bo'lajak texnologiya o'qituvchilari bilan suhbatlar usullari ham qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) raqamli texnologiyalarning turli vositalarini qamrab olgan. Ular multimedia, kompyuter va mobil texnologiyalar, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari, kabel aloqasi va internetdan foydalangan holda axborotni yaratish, qabul qilish va tarqatishda qo'llaniladi. "Raqamli texnologiyalar" atamasiga hozirgi vaqtida turli fanlarda bir nechta ta'riflarga ega. Dastlab, "axborot texnologiyalar" atamasini tilshunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu kompyuterlar yordamida ma'lumotlarni olish, saqlash, uzatish, tarqatish va o'zgartirish qonunlari, usullari hamda vositalari majmuuni anglatadi [10]. S.V. Titovaning ta'rifiga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'lismi faollashtirish va optimallashtirishga qaratilgan vosita bo'lib, axborot jamiyatida hayotga moslashgan shaxsnar tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi [11].

M. Vorsher o'zining "Fanlarni o'qitishda kompyuterlardan foydalanish" maqolasida fanlarni o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning uchta asosiy davrini ajratib ko'rsatadi: xulq-atvor davri (1950–1970-yillar), kommunikativ davr (1980-yillar), integratsiya davri (1990-yillar) [13]. S.V. Titova va A.P. Avramenko fanlarni o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning uchta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatadilar:

- 2002–2004-yillar – mobil ta'limga dastlabki bosqichi: mobil qurilmalardan foydalanish usullari va shakllari qayta ko'rib chiqildi va ularning ta'lim jarayoniga mosligi baholand;
- 2005–2008-yillar – mobil texnologiyalardan ta'limga foydalanishning ikkinchi bosqichi: jahon ilmiy hamjamiyati mobil ta'lim modelini yaratishni ma'qullab, fanlarni o'qitishda mobil qurilmalardan foydalanishning muhimligini e'tirof etdi va mobil ta'lim alohida yo'nalish sifatida shakllandi;
- 2009-yildan hozirgi kungacha – mobil texnologiyalarni ta'limga qo'llashning uchinchi bosqichi: bu bosqichda mobil ta'lim fanlarni o'qitishda samarali metod sifatida tan olindi va u masofaviy ta'limga muqobil sifatida namoyon bo'ldi [12].

Raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib borishi ta'lism sifati bo'yicha yangi talablar qo'ymoqda. Bugungi kunda mavjud ta'lism tizimi ta'minlayotgan dastlabki savodxonlik darajasi yetarli emas. Xodimlarning 50 % dan ortig'i kompyuter tomonidan avtomatlashtirilishi mumkin bo'lgan ishlarni bajarayotgan bo'lsa, ularning atigi 13 % aqli kompyuter tizimlari darajasidan yuqori savodxonlik darajasiga ega. Shu bilan birga, umumiy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan ishchilar ulushi XX asr to'qsoninchi yillariga nisbatan kamaygan. Bu holat zamonaviy ishchilarni tayyorlash jarayonini 20 yil oldingi ishchilarni tayyorlashdan kam samarali qilib qo'ymoqda. Bu holat zamonaviy ishchilarni tayyorlash jarayonini kam samarali qilib, ta'lism tizimini tub o'zgarishlarga muhtoj etadi [7].

Raqamli inqilob duch keladigan muammolarni hal qilish uchun yangi vositalar taqdim etdi. Raqamli texnologiyalar va vositalardan samarali foydalangan insonning intellektual mehnat unumdarligi sezilarli darajada oshadi. Raqamli inqilob yangi vositalar taqdim etib, intellektual mehnat unumdarligini oshirganidek, ta'lism sohasida ham shunga o'xshash natijalar kutilmoqda. Ular fikricha, ta'lism tashkilotlari sifatini yaxshilash uchun asosiy to'siq – bu mablag'larning yetishmasligi sababli yuzaga keladigan raqamli texnologik bo'shlqidir. Mahalliy va xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, o'quv jarayoni ishtirokchilari orasida raqamli texnologiyalarning mavjudligi ta'lism va tarbiya ishlarning samaradorligini oshirish uchun zarur, ammo yetarli shart emas [8].

Internet va mobil qurilmalar (noutbuklar, planshetlar, smartfonlar va boshqalar)dan keng foydalanish raqamli texnologiyalarga kirish imkoniga ega bo'lganlar va bo'Imaganlar o'tasidagi raqamli bo'linishni qisqartirishga yordam beradi. Bu texnologiyalardan foydalanishdagi tengsizlikni bartaraf etish uchun muhim qadam hisoblanadi. Mobil qurilmalar va internetning kengayishi asta-sekin "raqamli bo'linish"ni qisqartirib, uning ahamiyatini sezilarli darajada pasaytimoqda. Kelgusi yillarda bu bo'shilq muhim muammodan ahamiyatsiz omilga aylanishi kutilmoqda. Biroq, "texnologik raqamli bo'linish" deb ataluvchi muammo yangi turdag'i raqamli bo'linishga asos yaratadi. Bu yangi raqamli bo'linish raqamli texnologiyalardan ijodiy va samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganlar hamda ulardan faqat standart operatsiyalar uchun foydalanayotganlar o'tasidagi tengsizlik bilan bog'liqdir [2].

Raqamli texnologiyalar joriy etilayotgan barcha sohalarda, shuningdek, ijtimoiy guruhlar o'tasida yangi raqamli bo'linish yuzaga kelmoqda, bu esa maktab va universitetlarda shakllanadi. Yangi raqamli bo'linishni bartaraf etish ta'lif tizimi uchun muhim vazifalardan biri bo'lib, bu jarayon ta'lif mazmunini yangilash va zamonaviy metodlardan samarali foydalanishni talab etadi. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda kompyuter barcha turdag'i ma'lumotlar bilan ishlash uchun birinchi universal ommaviy vositaga aylandi [6]. Zamonaviy kompyuter dasturlari tasvirlar, ovozli va video materiallar, matnlar, hisob-kitoblar, turli ob'ektlarning axborot modellari kabi turli ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatini yangicha shaklda ta'minlaydi [3]. Kelgusi yillarda ta'lif sohasidagi xodimlar va metodistlar yangi raqamli axborot vositalarining ommaviy tarqalishini hisobga oлган holda, o'quv natijalariga oid an'anaviy qarashlarni o'zgartirishlari zarur.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari, asosan, ma'lumotlarni interaktiv uzatish, uzoqdan o'qitish, hamkorlikda o'qitish kabi nazariyalarga asoslanadi. Raqamli texnologiyalarning ta'lif jarayonidagi qo'llanilishi keng ko'lamli bo'lib, unda pedagogik nazariyalarning asosiy jihatlari hisobga olinadi. Masofaviy ta'lif, gibrid ta'lif va onlaysiz ta'lif kabi turli usullar raqamli texnologiyalardan foydalanishning natijadorligini oshirishda muhim hisoblanadi [14]. Raqamli texnologiyalar ta'lif jarayonini boyitish va samaradorligini oshirish uchun pedagogik nazariyalalar bilan birga qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Masofaviy va gibrid ta'lif modellari orqali talabalarga shaxsiylashtirilgan ta'lif berish va interfaollikni ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, raqamli vositalar ta'lif jarayonida hamkorlikka asoslangan o'quv muhitlarini yaratish uchun zamin hozirlaydi. Bunda talabalar birgalikda o'rganish, masofadan birgalikda vazifalarni bajarish imkoniga ega bo'ladir, bu esa bilimlarning mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lif jarayonida kognitiv faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Konnektivizm nazariyasiga asoslanib, raqamli texnologiyalar orqali ma'lumotlar tarmoqlarini yaratish va ularni o'rganish jarayoni talabalar uchun yangi bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi. Bu nazariyaga ko'ra, talabalarning bilimi ma'lumot tarmoqlari orqali shakllanadi va ushbu tarmoqlar orqali yangilanib boradi. Shu bilan birga, raqamli o'quv muhitlarining ta'siri kognitiv faoliyatni rivojlantirishda muhim o'r'in tutadi. Zamonaviy ta'lifda raqamli texnologiyalardan foydalanishning yana bir nazariy asosi – bu kurativ ta'lif konsepsiyasidir. Bu konsepsiya raqamli vositalar orqali ma'lumotlarni saralash va talabalarga mos ta'lif resurslarini topishda o'qituvchining maslahatchi rolini kuchaytirish nazarda tutiladi. Bunda talabalar o'zlarini uchun mos keladigan bilimlarni mustaqil topish va o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirishga e'tibor qaratadilar, bu esa ularning mustaqillik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik va motivatsion jihatlari ham ta'lif jarayonida katta ahamiyatga ega. Didaktik jihatlar, jumladan, raqamli vositalar orqali interfaol ta'lifni ta'minlash va darslarning vizual jihatini kuchaytirish orqali talabalarning o'quv jarayonida faol ishtiroy etishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Motivatsion jihatlar esa talabalarini ta'lif jarayonida qiziqrish va ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o'yнaydi.

Ta'lif jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirish maqsadida universitetlarda yagona axborot-ta'lif maydoni yaratilmoqda. U quyidagi muhim elementlarni o'z ichiga oladi:

1. O'rta ta'lif portalı: talabalar va o'qituvchilarga o'quv materiallari, vazifalar va fan bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etadigan platforma;
2. Mobil ilovalar orqali dars jadvali: talabalar uchun har doim dars jadvalini ko'rish va o'zgartirishlardan tezkor xabardor bo'lish imkoniyatini beradi;
3. Elektron portfolio: har bir talabaning o'quv natijalarini nazorat qilish, erishilgan yutuqlarni qayd etish va shaxsiy rivojlanishini kuzatish imkoniyatini yaratadi;
4. Onlaysiz reyting tizimi: talabalarning baholash jarayonini shaffof va aniq tarzda tashkil qilish uchun mo'jalangan. Bu kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish universitetlarning ta'lif jarayonini modernizatsiya qilishga va uni zamonaviy talablarga moslashtirishga yordam bermoqda [4].

Ta'lif mazmunini belgilashda asosiy vosita – ta'lif natijalariga qo'yiladigan talablar, ya'ni ta'lif yutuqlari standartlari bo'lishi kerak. Ilmiy-tadqiqot va o'qituvchilar tarkibi amaldagi Davlat ta'lif standarti va mahalliy sharoitlarni inobatga oлган holda, ushbu standartlarni har bir fan yo'nalishi bo'yicha aniqlash va tasdiqlashlari zarur. Ta'lif natijalari rasmiy ravishda o'quv dasturlarida qayd etilgan bo'lsa-da, ular tinglovchilar uchun doim tushunarli bo'lmaydi. Natijada, sertifikatlash jarayonida taqdim etiladigan vazifalar bilan uzviy bog'liq bo'lib

qoladi. Turli fanlarning ta'lrim natijalari mazmun jihatidan ham, ularga erishish uchun belgilangan vaqt bo'yicha ham har doim bir-biriga mos kelmaydi. Ularning tavsifi, ko'pincha, operatsion xarakterga ega emas, shu sababli ta'lrim natijalari o'quv materiallarini tanlash jarayoniga kam ta'sir ko'rsatadi. Ta'lrim jarayonida pedagogik dizayn protseduralaridan foydalanishga o'tish hamda o'quv ishlarni rejalashtirish amaliyotini qayta ko'rib chiqish zarur. Bu jarayonda raqamli axborot muhitidan foydalanish muhim rol o'ynaydi [5].

Shuni ta'kidlash lozimki, raqamli texnologiyalarning mavjudligi o'zi bilan birga ta'lrim sifati avtomatik ravishda yaxshilanishini ta'minlamaydi. Ta'larning raqamli transformatsiyasi – bu raqamli texnologiyalarni vazifalarni hal qilishda vosita sifatida qo'llashni ta'minlaydigan yangi yo'nالishdir. So'nggi o'n yilliklarda "qog'oz" dan "raqamli" axborot muhitiga o'tishni kuzatdik. Bu jarayon har bir bosqichda yangi atamalar bilan belgilandi: kompyuterlashtirish, axborotlashtirish va hozirgi kunda – inson faoliyatining tegishli sohasini raqamlashtirish deb nomlandi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni ta'linda qo'llash uchun asos raqamli inqilobning yangi bosqichi tomonidan yaratiladi, bu esa raqamli texnologiyalarni vazifalarni hal qilishning ochiq va ishonchli vosisiga aylantiradi. Ta'larning raqamli transformatsiyasining mohiyati raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o'quv jarayonini shaxsiyashtirishga qaratilgan harakatdir. Uning asosiy xususiyati shundaki, raqamli texnologiyalar ilgari an'anaviy "qog'oz" orqali amalga oshirishning murakkabligi tufayli ommaviy ta'linda munosib o'rinn egallay olmagan yangi pedagogik amaliyotlarni (tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishning yangi modellari) amalda qo'llashga yordam beradi [9].

XULOSA

So'nggi o'n yillik mobaynida raqamli texnologiyalar zamonaviy yuqori texnologiyali sanoat, xizmat ko'rsatish sohalari va davlat idoralari faoliyatini sezilarli darajada yaxshiladi. Kelgusi o'n yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi yangi yutuqlar tufayli raqamli texnologiyalar ta'lim tashkilotlarining faoliyatini ham sezilarli darajada takomillashtirishi kutilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi yangi yutuqlar ta'lim muassasalaridagi jarayonlarni tezkorashtirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu jarayonlarda ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish va raqamli texnologiyalarni har tomonlama qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish nazariy jihatdan muhim poydevorga ega bo'lib, ta'limga konstruktivistik yondashuv asosida qayta tashkil etishni talab qilmoqda. Ushbu jarayon talabalarni bilimni faol egallovchi, aktiv ishtirokchilarga aylantirish, ta'lim tizimini zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish, bilim manbalarini diversifikatsiya qilish va raqamli muhitda interfaol ta'limga ta'minlashni nazarda tutadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-83472>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-267044>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-858969>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagи "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-1986827>
6. Oliy ta'lim Davlat standarti. 5111400 – Texnologiya ta'limi yo'nالishni bo'yicha bakalavrarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yildigan talablar. Rasmiy nashr. – Toshkent, 2018.
7. Бадмаева, Н.Ц. Влияние мотивационного фактора на развитие умственных способностей: монография / Н.Ц. Бадмаева. – Улан-Удэ: Издательство ВСГТУ, 2004. – 280 с.
8. С.Н. Бацунов, И.И. Дереча, И.М. Кунгирова, Е.В. Слизкова // Научно-методический электронный журнал "Концепт". – 2018. – №4. – С. 12. – URL: <http://e-koncept.ru/2018/181018.htm> (дата обращения: 01.12.2018).
9. Дубина, И.Н. Математические основы эмпирических социально-экономических исследований: учебное пособие / И.Н. Дубина. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2006. – 263 с.
10. Anderson, T. & Dron, J. (2011). Three Generations of Distance Education Pedagogy. International Review of Research in Open and Distance Learning. <https://doi.org/10.19173/irrodl.v12i3.890>

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.